

MADANIY ZIG'IR (L.USITATISSIONUM) O'SIMLIGINING XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI VA FOYDALI XUSUSIYATLARI

Norqo'ziyeva Sarvinoz Botir qizi
Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti

ANNOTATSIYA

Respublikada so'nggi yillarda moyli ekinlarni yetishtirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, moyli ekinlarni kompleks o'rganish uchun tajriba maydonlarini tashkil etish ishlari keng ko'lama olib borilmoqda. Shunday moyli ekinlardan biri madaniy zig'ir hisoblanadi. Undan oziq-ovqat va yem-xashak sifatida foydalanishdan tashqari shifobaxsh o'simlik sifatida ham muhim o'rinn tutadi.

Kalit so'zlar: zig'ir, o'simlik moyi, ildizi, poyasi, bargi, guli, urug'i, tola, lub tolalari, shilliq eritma, preparat.

АННОТАЦИЯ

В последние годы в республике широко ведётся создание экспериментальных площадей по выращиванию масличных культур, рациональному использованию природных ресурсов, комплексному изучению масличных культур. Одной из таких масличных культур является лен культурный. Помимо использования в пищу и корм, он также важен как лекарственное растение.

Ключевые слова: лен, растительное масло, корень, стебель, лист, цветок, семя, клетчатка, смазочные волокна, раствор слизи, препарат.

ABSTRACT

In recent years, in the public, the creation of experimental areas for the cultivation of oil crops, rational use of national resources, and the comprehensive study of oil crops have been carried out on a large scale. One of such oil crops is cultivated flax. In addition to its use as food and fodder, it is also important as a medical plant.

Keywords: flax, vegetable oil, root, stem, leaf, flower, seed, fiber, lube fibers, mucilage solution, preparation.

Respublikamiz hukumati aholi turmush farovonligini oshirish uchun xalq xo'jaligining barcha sohalarida, ayniqsa, qishloq xo'jaligida katta islohotlar olib bormoqda. O'zbekiston aholisining o'simlik moyig bo'lgan talab asosan paxta chigitidan olingan moy bilan qondiriladi. O'simlik moyiga bo'lgan talab oshib

bormoqda. Bunga birinchidan, ekinlar tarkibi o‘zgarib, paxta chigitining kamayganligi, ikkinchidan, aholi sonining uzlusiz oshib borishi sabab bo‘lmoqda. Demak, mamlakatimizda o‘simplik moyiga bo‘lgan talab oshib bundan keyin ham oshib boraveradi, bu talabni qondirish asosiy muammolardan biri bo‘lib qoladi. Aholini eng arzon va sifatli o‘simplik moyi bilan ta’minlash yo‘llarini qidirish zarur. Madaniy zig‘ir o‘simpligidan shu maqsadda foydalanish mumkin.

Zig‘ir-Linum L.turkumi zig‘irdoshlar(Linaceae) oilasiga mansub o‘simplik turi hisoblanadi. Asosan mo‘tadil iqlim va subtropik mamlakatlarda o‘sib rivojlanadi. Zig‘ir ekini dastlab Eron va Hindiston davlatlarida kelib chiqib, keyinchalik Xitoyda ekilgan. Uning hozirgacha 200ga yaqin turi ma’lum, shundan madaniy turi mavjud bo‘lib aksariyat turlari O‘rta Yer dengizi mintaqasida uchraydi. Bular ichida ayniqsa madaniy zig‘ir (L.usitatissimum)-yog‘ va tola olish maqsadida keng miqqosda ekiladi. Gultoji barglariochilishi bilan changdonlar yorilib, chang donachalari shu gul urug‘chisining tumshuqchasiga to‘kiladi. Ildizi o‘q ildiz tizimli, kungaboqar va maxsarga nisbatan ildizlari kuchsiz rivojlangan, ko‘plab yon shoxlar hosil qiladi. Zig‘ir ildizlari tuproqdan ozuqa moddalarni sekin o‘zlashtiradi. Poyasining uzunligi lalmi yerlarda 35-60sm, shartli sug‘oriladigan yerlarda 60-70smga yetadi, ingichka, shoxlanish darajasi nav xususiyatlariga bog‘liq. Yon shoxlari 4tadan 8tagacha bo‘ladi. Poyasi po‘stining tagida lub tolalari bor. Tolasi uzunligi zig‘ir poyasining bo‘yi, yon shoxlarining ko‘p yoki kamligiga bog‘liq. Barglari mayda, barg bandi yo‘q, ingichka, lansetsimon shaklda. Gullari ko‘k, havorang binafsha rangda, 5ta tojibarglari bor. Bir tupida 40-60 ko‘sakchalar bo‘ladi. Ko‘sakchalar pishganda to‘kilib ketmaydi, pishgandan keyin uzoq vaqt davomida yig‘ishtirilmasa, shoxlari sinadi. Urug‘lari mayda tuxumsimon, yassi, uchi biroz bukilgan, yaltiroq jigar rangda, ba’zan och qo‘ng‘ir tusda bo‘ladi. Urug‘I tarkibida moy miqdori 32-47%, yaxshilangan navlarda esa 47-50% gachani tashkil etadi. 1000dona Don vazni 3-8g.[2]. Zig‘ir o‘zidan ham, chetdan ham changlanadi. Yetishtiriladigan joyi quruq bo‘lsa, ko‘proq chetdan, nam yetarli bo‘lsa, asosan o‘zidan changlanadi.

Moyli zig‘ir qadimgi ekinlardan biri bo‘lib,poyasidan tola, urug‘laridan qimmatbaho iste’mol moyi olinadi. Urug‘i tarkibida 30-47 8% moy bor. Zig‘ir moyining bir qismi texnikada, lak-bo‘yoq sanoatida, linoleum, klyonka, yomg‘ir o‘tmaydigan materiallar ishlab chiqarishda qo‘llaniladi. Zig‘ir urug‘ining moyi sovun ishlab chiqarishda ham qo‘llaniladi. Moyi siqib olinganidan keyin qolgan qismi-kunjarasi chorva mollari uchun eng to‘yimli ozuqa hisoblanadi, tarkibida 33,5% oqsil va boshqa to‘yimli ozuqa moddalarini saqlaydi. Zig‘ir kunjarasining 100kg.ida 185 ozuqa birligi bor. U to‘yimliligi bilan hamma kunjara turlaridan ajralib turadi. Ammo, shuni esda tutish lozimki, yaxshi pishib yetilmagan zig‘ir urug‘lari kunjarasi tarkibida zaharli sinil kislotasi bor. Yaxshi pishmagan zig‘ir urug‘i kunjaralarini chorva mollariga dimlab, qizdirib berish lozim.[1]

Zig‘ir moyalaridan o‘ta sifatli qimmatbaho qog‘oz tayyorlanadi, shuningdek, tola olinadi. Ko‘p shoxlaydigan navlarining tolalari kalta, sifatsiz bo‘ladi. Poyasidan tola chiqish miqdori 10-13%ni tashkil qiladi. Olingan tolalardan arqon, tizimcha va dag‘al materiallar tayyorlanadi. Zig‘ir moyalaridan issiq saqllovchi vosita sifatida foydalanish mumkin. Zig‘ir to‘poni chorva mollari uchun eng xushxo‘r ozuqa hisoblanadi. Moyli zig‘ir ko‘pgina mamlakatlarda: O‘zbekiston, Tojikiston, Ukraina va Rossiyaning ayrim viloyatlarida katta-katta maydonlarda ekiladi. O‘zbekistonda moyli zig‘ir Qashqadaryo, Surxondaryo, Toshkent, Samarcand va Jizzax viloyatining yog‘ingarchilik bilan ta‘minlangan tog‘ oldi va tog‘li hududlarida ekiladi. Moyli zig‘ir maydonlari tolali zig‘ir maydonlariga qaraganda juda kam. Moyli zig‘ir hosildorligi tabiiy iqlim sharoitlariga qarab turlicha bo‘ladi. Yuqori agrotexnika qo‘llanilganda lalmikor yerlarda o‘rtacha hosildorlik 8-10s/ga, sug‘oriladigan yerlarda 15-20s/ga ni tashkil etadi.[1]

Zig‘ir urug‘i o‘rab oluvchi va ich yumshatuvchi dori sifatida ishlatiladi. Shilliq



Zig‘irning turlari: 1-tolali zig‘ir; 2-moyli zig‘ir

ertima tayyorlash uchun urug‘ butunligicha issiq suvda chayqatiladi. Shilliq mmoddalar urug‘ining epidermis qavatida bo‘lganidan tezda suvda erib, ajralib chiqadi. Urug‘ning 15-20%li qaynatmasi og‘iz chayqash uchun ishlatiladi. Kunjara kukuni (ba’zan butun urug‘ni yanchib tayyorlangan kukun-poroshok) tananing og‘riyotgan joyiga qizdirib qo‘yiladi. Zig‘ir moyi tibbiyotda, oziq-ovqat sanoatida va texnikada qo‘llaniladi. Zig‘ir moyidan olinadigan linetol preparati (olein, linol, linolen va boshqa yog‘ kislotalarining etil efirlarinjng aralashmasi) va uning kompleks preparati livian ateroskleroz kasalligini davolash va oldini olishda hamda kuyganni va nur terapiyasi natijasida zararlangan joyni davolashda foydalaniladi.[3]. Dorivor preparatlari: shilliq eritmasi, 15-20%li qaynatma, urug‘ kukuni-poroshogi(uni), livian preparati.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, madaniy zig‘irning tolali va moyli turlari xalq xo‘jaligidagi va tibbiyotda katta amaliy ahamiyatga ega. O‘simglik moyiga bo‘lgan

talab kundan kunga oshib borayotganini hisobga olgan holda madaniy zig‘ir o‘simgidan xalq xo‘jaligida foydalanish yuqori samara beradi. Zero, moy inson uchun eng zarur va hech narsa bilan almashib bo‘lmaydigan oziq-ovqat mahsulotlari sirasiga kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Moyli ekinlar.D.Yo.Yormatova .Samarqand “Zarafshon”- 2004
2. Lalmikor yerlarda moyli ekinlar yetishtirish agrotexnologiyasi. Sh.Oripov, BB.Haydarov. Jizzax “Ziyo”-2017
3. Dorivor o‘simgikkarni yetishtirish texnologiyasi. O‘. Axmedov va boshq. Toshkent “Shafoat Nur Fayz”2020